

## O'ZBEK TILIDA ERGASH GAPLAR TASNIFI «ERGASH GARLARNI TASNIF QILISHNING ASOS (MEZON)LARI»

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Xo'jayli tumani*

*24-o'rta ta'lif maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

***Aytbayeva Gulandam Tanirbergenova***

***Annotatsiya:*** Maqolada Ona tilida ergash gapni yasalishi va ularni asosiy tasnifi haqida ma'lumotlar berilgan.

***Kalit so'zlar:*** Bosh gap, ergash gap, hol ergash gap.

Ergash gaplar ham, xuddi sodda gaplar kabi, nisbiy tugal fikr bildiradi, o'zida predikativlikni ko'rsatadi va maxsus ohangga ega bo'ladi. Ergash gap eng muhim sintaktik kategoriya sifatida , bosh gapdagi biror bo'lakni yoki butun bir bosh gapni izohlaydi, mazmunni to'ldiradi va shu orqali bosh gapga biror tomondan aniqlik kiritadi. Ayniqsa, biz bilamizki, odam borki,...tarzida bosh gaplarda struktura uchun juda zarur bo'lган, lekin uslub tomonidan uni ifodalashga u qadar ehtiyoj sezilmagan bo'laklar tushib qolgan bo'lib, natijada to'liqsiz shakllangan konstuksiyalar vujudga keladi. Bu vaqtida o'sha tushib qolgan bo'lak o'rnida ergash gapdan foydalaniladi, shu bilan gap mazmuni to'ladi: Masalan,

Biz bilamizki, baxt mehnat bilan topiladi.

Odam borki, qolur undan yaxshi ot.

Shunday qilib, fikrni ifodalashning parallel shakllari yuzaga keladi.Bular mantiqiy tomonidan bir-biridan farq qilmaydi. Ergash gapdan, dastavval, bosh gapdagi ana shu «kemtik» o'rinni to'ldirish, fikrni aniqroq, ochiqroq berish maqsadida foydalaniladi. Masalan; Sen sezdingmi (nimani?), bizning nafasdan Koinotda ortgan edi nur. (Zulfiya) Odam borki (qanday), odamlarning naqshidir.

Birinchi gapda fikr aniqligi uchun kerak bo'lgan to'ldiruvchi, ikkinchi gapda esa aniqlovchi yetishmaydi. Ergash gaplar ana shu ikkinchi darajali bo'lak o'rnini

qoplaydi. (komrensatsiya). Bunday konstuksiyalarda ba’zi bosh gaplar o’zi uchun xarakterli sanalgan grammatik va intonatsion tugallik yoki “mustaqillik” belgilariga ega bo’lmay ham qoladi:

Toleim shulkim, Vatanda bir guliston tanladim. (H.Olimjon).

Bir o’lkaki, tuprog’ida oltin gullaydi.(Oybek)

Har ikki gapda ham bosh gapdagi mazmunga qaraganda , ergash garp orqali muhimroq, voqeа-hodisa haqida habar berilgan. Ergash gaplar bosh gapga nisbatan xiyla «mustaqillik» vaziyatga ega. «Lekin bunday ergash gaplar bosh gap uchun xizmat qiladi; undagi biror o’rinni to’ldiradi, ochadi, biror bo’lakni izohlaydi va funksiyasiga ko’ra har doim tobe bo’lib qoladi va ergash gap sanaladi». Ergash gar bosh garga ergashadi, bosh gap esa mustaqilday ko’rinsada, ergash gap itomonidan izohlanadi. Ergash va gaplarni ajratishda bog’lovchilarga qarash lozim bo’ladi. «Ona bor, shuning uchun baxting barqaror» gapini tahlil eta borib, baxting barqaror gapini ergash gapga kiritib yuborish ham mumkin. Chunki ergashtiruvchi bog’lovchi anu shu gap tarkibidan joy olgan. Darsliklarda ham sabab ergash gar bosh garga shuning uchun, chunki, shu sababli bog’lovchilari orqali bog’lanadi, deyiladi. Aslida esa ana shulardan ikkitasi tarkibida (shuning uchun, shu sababli) ko’rsatish olmoshlari bo’lib, ko’makchili sabab holi vazifasini bajaradi. Ergash gap esa ana shu sabab holiga ekvivalent sanaladi, demak, onang bor gari sabab ergash gapdir. Demak, bir xil ergash gaplar turini aniqlash uchun bog’lovchi yoki o’rin bosh mezon bo’lmaydi, balki bosh gapdagi ko’rsatish olmoshi asosiy mezon sanaladi. A: Ergash gar bosh garga nisbatin undagi ko’rsatish olmoshini izohlash uchun xizmat qiladi. Agar ko’rsatish olmoshi ifodalangan bo’lsa, ergash gar o’sha olmosh bajarishi lozim bo’lgan vazifasida kelib, bosh garga to’ldiradi, izohlaydi yoki aniqlaydi.

Misollar: Ega o’rnida keladigan ergash gap:

Erta bilan ma’lum bo’ldiki, (nima?), jasur razvedkachi ikki nemis ofitserni asir olib kelgan ekan.

Kesim o’rnida : (nimdir?) Aybim shuki, cho’loqman.

O’rin holi o’rnida: Qaerda egri qo’l bo’lsa, o’sha erda baraka yo’qoladi.

Sabab holi o’rnida: Nur borki, soya bor.

Bosh va ergash gaplarga savollar berish orqali ham ular orasidagi munosabat aniqlanishi mumkin. Savol har ikki gapga berilib, javob ergash gap vositasida yuzaga keladi. Ergash gar umumiylit bildiruvchi hol vazifasini o’taydi. Biror uslub talabi bilan, logik urg’u yoki predikativlikning o’ziga xos tomonlari tufayli, bosh gardagi yashiringan bo’lak o’rniga biror so’zni tiklash mumkin. Lekin bu bo’lak ko’rsatish olmoshi orqaligina ifodalanadi va o’ta mavhum ma’no bildiradi. Bunday hollarda ergash gapning asosiy ma’nosini ochish, uni izohlash bo’lib, unga teng hisoblanadi. Tenglikni isbotlash uchun ana shu ergash garlarni bosh gardagi ko’rsatish olmoshi o’rniga olib kirish kifoya (bu vaqtda sodda gap paydo bo’ladi).

Hikmat xarjlangan bilan tamom bo’lmaydigan xazinadir.

Seni Vatan kutishini bil.

Ko’rinadiki, olmosh bilan uning o’rniga kiritilgan ergash gap struktura tomonidan farqlansa-da, vazifa jihatidan bir-biriga sinonim bo’lib qoladi. Sinonimlar orasida ma’nosida farq bo’lgani kabi, ergash gap bilan yoyiq (oborot) bo’lak va ergash gap orasida ham ayrim farqlar bo’ladi. Bu –maxsus so’z. Bu o’rinda muhimi shuki, ergash gap bosh gapning ko’rsatish olmoshiga teng bo’ladi, uni izohlash orqali bosh gapga bog’lanadi. Bosh va ergash gaplar orasidagi mantiqiy munosabat ham, dastavval, ana shu olmosh va ergash gap orqali belgilanadi.

Bosh garning birgina bo’lagiga tobe (taaluqli) bo’lgan ergash gaplar, odatda, birinchi tur ergash garlar sanadadi. Hozirgi zamон o’zbek adabiy tilida ko’rsatish olmoshining, asosan, uch shakli ko’proq qo’llanadi: Shu, u, bu. Lekin bu olmoshlar sintaktik vazifa bajarganda, kelishik qo’shimchalarini olib (shunga, unga, uning) yoki ko’makchilar bilan kelib, shaklan ancha ko’payib ketadi: o’qituvchilik kasbi shu bilan ahamiyatliki, u avvalo, odamning o’zini tarbiyalaydi. Bizda shu qadar yorug’dirkı tun, Andijon Qo’qonni imlashi mumkin («Xat»). Bu olmoshlar turli yasovchi qo’shimchalar ham oladi: shuncha, shunday. Qancha yozsang, shuncha oz deb tursa May, Bo’lurmi yozmay? (E.V.) Bu shundayin ajib diyordir, uning eng zo’r

ko'zgusi oydir. (H.O.) Hozirgi o'zbek tilida ana shu olmoshlar o'rniда ko'p vaqt bir so'zi ham qo'llanadi: Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi. Shu,bu olmoshlari, asosan, umumiy holatni ko'rsatish uchun qo'llanadi. U olmoshi esa o'rni bilan shaxs ma'nosini ham ifodalaydi va kim? so'rog'iga javob bo'ladi. Bu vaqtida bog'lovchi vositalar ham ko'payadi. Ergash gar tarkibida u olmoshiga taqozo etiluvchi kim olmoshi bo'ladi. Har ikki olmosh orasida qiyosiy munosabatlar yuzaga kelib, bosh va ergash garlar esa shart formasi yordamida ham o'zaro bog'lanadi. Shuning uchun bunday konstruksiyalarda nisbiy-qiyosiy mazmundan tashqari, shart ma'nosi ham bo'ladi. Lekin umumiy mezon asosida ergash gap turini aniqlash uchun bosh gap tarkibidagi u olmoshning shakli hamda vzifasi toriladi. Bunday garlarda mazmuniy bog'lanish shunday kuchli bo'ldiki, bosh gardagi ko'rsatish olmoshi (shaxs olmoshi) ko'p vaqt tushib qolsa ham, gap qurilishi va yo'nalishidan uni osongina topish mumkin bo'ladi. Misollar:

U: Har kimki vafo qilsa,vafo torqusidir. (Bobir)

Kimning hunari bo'lsa, xazinaga egadir. (Navoiy)

Uning: Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim. (Navoiy)

Kimning: Agar yolg'on erursa so'zi, bor-yo'g'i bo'lar yuzi.

Unga: Kimikim mard erur, insof lozim. (Furqat)

Undan: Kimki butunlay yolg'onchilikka yuz tutsa, baxt qochadi.

Bosh gapdagi ko'rsatish olmoshi qanday vazifa bajarsa, ergash gap ham shu nom bilan yuritiladi. Bunda ergash gapning bog'lovchilari, nisbiy olmoshning formasi hamda savoli, ularning o'rni mutloqo nazarda tutilmaydi, balki gapdagi olmoshning vazifasi asosida ergash gar tasnif etiladi; ergash garning turi aniqlanadi. Agar olmosh bosh garda ega vazifasi qo'llansa, ergash gap ega ergash gap sanaladi:  
1. Shu narsa quvonchlik, bu safargi qatnashuvchi mamlakatlar soni ham avvalgidan ancha ortiq. Shunisi muhimki, Toshkent jahon ahamiyatiga molik bo'lgan juda katta ilmiy, siyosiy va ijtimoiy anjumanlarning markaziga aylanib bormoqda. Shunisi quvonchlik, ish haqida Saltanat o'zi gap boshladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov G'. Sulaymonov H. Holiyorov X. J.Omonturdiev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. 1976 yil.
2. G'ulomov A.G'. Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1987 yil.
3. Sayfullaeva R, Uyushuvchi birliklar va ularni uyushtiruvchi elementlar. T., Fan, 1990 yil.
4. G'.Abduraxmonov. "O'zbek tili grammatikasi" Toshkent: "O'qituvchi" 1996.